

**ГЕПАТИТ В КАСАЛЛИГИНИ ХАЛҚ ТАВОБАТИ  
USULLARI BILAN DAVOLASH  
НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА БОЛЕЗНИ ГЕПАТИТОМ В  
ЛЕЧЕНИЕ МЕТОДАМИ  
FOLK MEDICINE OF HEPATITIS B DISEASE  
TREATMENT WITH METHODS**

*Tadjiboeva Moxinur Abduvoxid qizi  
Andijon davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotasiya** Maqolada gepatit B kasalligining kelib chiqish sabablari, asoratlari xamda xalq tabobati usullari bilan davolashning samarali ekanligini dalillar bilan asoslab berilgan. Ilmiy izlanishlar davomida gepatit B kasalligini davolashda xalq tabobati usullaridan ya'ni to'g'ri ovqatlanish tartibini yo'lga qo'yish xamda kimyoviy tarkibi jixatdan ushbu kasallikni davolovchi preparatlarga yaqin, tarkibi mikro-makro elementlarga, vitaminlarga boy anor mevasining foydali xususiyatlari o'rganildi.

**Аннотация** В статье доказательно обоснованы причины и осложнения заболевания гепатитом В, а также эффективность лечения методами народной медицины. В ходе научных исследований изучены полезные свойства плодов граната, богатых микро-макроэлементами и витаминами, которые по своему химическому составу близки к препаратам, применяемым для лечения этого заболевания.

**Annotation** In the article, the causes and complications of hepatitis B disease, as well as the effectiveness of treatment with folk medicine methods, are substantiated with evidence. In the course of scientific research, the beneficial properties of pomegranate fruit, rich in micro-macro elements and vitamins, which are close to the drugs used to treat hepatitis B from the folk medicine methods, i.e. the establishment of a proper diet, and the chemical composition, were studied.

**Kalit so'zlar:** [Antioksedant](#), [mikroelement](#), [flavanoid ateroskleroz](#), [stenokar diya](#), [gipertoniya](#), [gipertireoz](#), [jigar sirrozi](#), [giperglikemiya](#), [yuqumli gepatit](#), [stress](#), [glyukozuriya](#).



**Ключевые слова:** Антиоксидант, микроэлемент, флавоноиды, атеросклероз, стенокардия, гипертоническая болезнь, гипертиреоз, цирроз печени, гипергликемия, инфекционный гепатит, стресс, глюкозурия.

**Keywords:** Antioxidant, trace element, flavanoid atherosclerosis, stenocardia, hypertension, hyperthyroidism, liver cirrhosis, hyperglycemia, infectious hepatitis, stress, glucosuria.

*Gepatit B* - kasalligi faqat bemorning biologik materiallari bilan aloqa qilish orqali yuqishi mumkin. Ko'p hollarda infektsiya bemorlarda sezilmasdan kechadi, shuning uchun kasallik laboratoriya tahlillari natijasida yoki xususiyatli belgilari namoyon bo'lgan paytda aniqlanadi. O'z vaqtida davolangan odamlar *gepatit B* kasalligidan butkul sog'ayib ketish extimoli xam yuqori bo'lib, o'zlarida ushbu kasallikka qarshi barqaror immunitet shakllantirishi orqali sekin astalik bilan yengib o'tishlari mumkun. Bu virusli kasallik bo'lib, virus organizmga tushganda hayotiy zarur bo'lgan ichki organlarga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Ushbu kasallik tufayli eng ko'p jigar shikastlanadi, uning shikastlanishi mikro-hujayrali darajada bo'ladi. *Gepatit B* alomatlarsiz kechishi yoki aniq belgilar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Surunkali bosqichiga o'tganda, ushbu virusli infektsiya ko'pincha jigar sirrozi va saratoni rivojlanishiga olib keladi [1].

Virus bemorning tanasiga kirganidan so'ng, *gepatitning* inkubatsiya davri boshlanadi, bu o'rtacha 15 dan 90 kun davom etadi, lekin 6 oygacha cho'zilishi mumkin. B guruh *gepatiti* rivojlanishining sababi bu kasallik qo'zg'atuvchisi - virusning inson organizmiga kirishidir. Kasallik ayniqsa bir qator salbiy omillar (alkogol, nikotin, kimyoviy va zaharli moddalar, dorilar) ta'sirida zaiflashgan immunitetli kishilarda ko'p uchraydi. Immunitetga shuningdek boshqa kasalliklar ham ta'sir qiladi, bu tanadagi metabolik buzilishlar, vitamin va minerallarning yetishmasligi tufayli yuz beradi.

*Gepatit B* bilan og'rikan insonlar ijtimoiy izolyatsiyada bo'lmasligi kerak, chunki bu virus havo-tomchi yo'llari orqali yuqmaydi. Bemor odam bilan aloqada bo'lgan har qanday kishi zarur choralarni va shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishi kerak. Ko'p yillar butun dunyo bo'ylab olib borilgan tadqiqotlar natijasi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu kasallikning kechishi bemorning qanday infektsiyalanganligiga, shuningdek, uning yoshiga bog'liq.



Gepatitning bu shakli ko'pincha yoshlarda paydo bo'ladi, chunki ular sog'lig'iga jiddiy e'tibor bermaydilar va organizmning tashvishli signallariga javob choralari ko'rmaydilar [2].

Inson organizmida rivojlanayotgan gepatit B tashqi belgilarni namoyon qilganda bemorlarda quyidagi alomatlar kuzatilishi mumkin- ko'ngil aynishi, bosh aylanishi, charchoq, rinit, tana haroratining ko'tarilishi (odatda harorat 39-40 °C ga yetadi), yo'tal, umumiy zaiflik, burun-halqumdagi og'riq hissi, kuchli bosh og'riqlari, teri rangining o'zgarishi (sariqlik), shilliq qavat, ko'z skleralari, kaftlarning sarg'ayishi, siydik rangining o'zgarishi (u ko'pira boshlaydi, rangi qora pivo yoki achchiq choy rangiga o'xshaydi), bo'g'imlardagi og'riq sindromi, ishtahani yo'qolishi, axlatning rangi o'zgaradi (rangsizlanadi, oqimtir tus oladi), o'ng qovurg'a ostidagi og'irlik, varaja tutadi.

Gepatit B jigarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kasallikdir, infeksiya va yallig'lanish jarayonlari natijasida bu muhim organ hujayraviy darajasida shikastlanadi. Davolash paytida jigar faoliyatini osonlashtirish uchun bemor parhezli ovqatlanishga amal qilish kasallikni yarim davosi xisoblanadi. Mutaxassislar bemorlarga maxsus tayyorlangan parhez dasturini qo'llashni tavsiya qilish lozim.

Avvalo, kishi kundalik oziq-ovqat ratsionini teng ravishda 5-6 ta qismga ajratishi kerak. Davolanish davomida ko'pincha zararli oziq-ovqat va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish bilan birga kechadigan ommaviy bayramlarda ishtirok etish qat'iy tanqislanadi. Kechqurun bemor ovqat hazm qilish tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatmaydigan yengil ovqatlar qabul qilishi kerak. Gepatit B bilan kasallangan bemorlar kundalik ratsionidan quyidagi mahsulotlarni chiqarib tashlashlari kerak, achchiq ovqatlar va ziravorlar, dudlangan va tuzlangan mahsulotlar, ko'p miqdorda efir moylari mavjud bo'lgan sabzavotlar, spirtli va gazlangan ichimliklar, yaxna ichimliklar va muzqaymoq, yog'li go'sht va baliq turlari, suvda suzuvchi parrandalar go'shti, tarkibida xolesterin yuqori bo'lgan ovqatlardan o'zini tiyish lozim.

Bemorlarga kundalik ratsionga quyidagilarni kiritish tavsiya etiladi, yormalar, ayniqsa suli yormasi, sut mahsulotlari, soya, zaytun va o'simlik moyi, tovuq tuxumining oqi, go'sht va baliqning kam yog'li navlari. Mahsulotlarni bug'da tayyorlash kerak, chunki bunday



ishlov berishda mahsulot maksimal foydali moddalarni saqlab qoladi. Kundalik ratsionda 3500 kkal (100 gramm oqsil, 100 gramm yog‘, 450 gramm uglevod) bo‘lishi kerak.

Kundalik shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish (ayniqsa, ko‘p odamlar bilan, shuningdek, pul va umumiy foydalanish ob‘ektlari bilan aloqa qilishdan keyin qo‘lni yuvish juda muhimdir), manikyur salonlarni, go‘zallik salonlariga tashrif buyurganda ishchilar tomonidan sanitariya qoidalariga rioya qilishiga e‘tibor berish, muntazam ravishda rivojlanishning dastlabki bosqichida virusni aniqlashga qodir bo‘lgan uchun qon tahlillarini topshirish, boshqalar qoni yoki boshqa biologik materiallar bilan aloqalar qilmaslik, sog‘lom turmush tarzini saqlash, spirtli ichimliklar va chekishdan voz kechish, immunitetni kuchaytirish, vitamin va mineral komplekslarni qabul qilish, sport bilan shug‘ullanish, toza havoda sayr qilish, har kuni iloji bo‘lsa xonani shamollatish tavsiya etiladi [4].

Jigarni yanada shikastlashi mumkin bo‘lmagan dorilarni ishlatish yanada kuchli asoratlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu sababdan gepatit B kasalligi bilan davolanayotgan bemorlar tabiiy foydali ovqatlanish xamda sog‘lom turmush tarziga amal qilish qat’iy talab etiladi. Xalq tabobatida manashunday foydali vitamin, minerallarga boy meva anor, ushbu kasallikda samarali ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. Agar ushbu kasallik bilan kurashayotgan inson go’sht mahsulotli taomlarni iste’mol qilmasa va vegetarian bo‘lsa, albatta shu meva bemorning ovqatlanish ratsionida doimiy ravishda bo‘lishi kerak. Chunki unda go’sht mahsulotida mavjud 15 dan ortiq aminokislotalar bor.

Anor ustki qismidan qurigan, ichi esa yaxshi pishgan va suvli bo‘lishi kerak. Chunki siz anorni po‘sti silliqroq vaqtida uzib olgan bo‘lsa u taqdirda anor hali yaxshi yetilib pishmagan bo‘ladi. Shuning uchun anorni po‘sti quriganroq bo‘lishi kerak. Anorning po‘sti bizga uning pishgan yoki pishmaganligi haqida bilish imkonini yaratadi. Anor sharbati juda ham foydali bo‘lib, jigar kasalliklari bilan bir qatorda uni qon kamlik kasalligida, aterosklerozda, bronxial astmada, anginada, diabet kasalliklarida iste’mol qilish tavsiya etiladi.

Shuni aytib o‘tish joizki, anor ovqat ratsioniga kiritilgan bo‘lsa va uni iste’mol qilib turilsa jigar, yurak hastaliklari yuzaga kelishini va ayollar ko‘krak raki oldi olingan bo‘lishi mumkin. Anor shifobaxsh moddalarga boy meva bo‘lib, unda S, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>, PP, va A



vitaminlari, Ca, K, Fe, J, Si, P, Al, Mg, Cr, Cu mikroelementlari xamda foli va askorbin kislotasi yetarli darajada mavjud xamda anorning 100 grammida 80 kkal mavjud [5].

Anor po'stlog'ida esa oshlovchi, qatron, bo'yoq moddalari, meva po'sti hamda oraliq pardalari tarkibida 28 foizga qadar oshlovchilar saqlanadi. Anor ozib ketishni oldini oladi, gemoglobinni ko'taradi, shamollashni daf etib, og'riqlardan xalos etadi, yurak og'rig'ini yengib, qon tomirlar va peshob yo'llaridagi faoliyatni yaxshilaydi, ich og'rig'ini davolaydi, ichaklardagi bog'lanish hamda o't qopi ishini me'yorga keltiradi, jigardagi quvvatsizlikka barham berib, immunitetni ko'taradi. Eng muhimi, anor ishtahani ochadi. Tana harorati ko'tarilganda tushiradi va tanadagi modda almashinuvini yaxshilaydi. Anor eng foydali mevalardan bo'lib, xalq tabobatida nafaqat mevasi, balki po'chog'i, guli, bargi, novdasi va hattoki ildizi ham koni foyda ekanligi e'tirof etiladi. Mevasidan tayyorlangan sharbat immunitetni ko'taradi. Bu esa kishiga har qanday infeksiyaga qarshi kurasha olish imkonini beradi. Zamonaviy tibbiyotda ham, xalq tabobatida ham ayollarga ko'proq anor yeyish tavsiya etiladi. Tibbiy tadqiqotlarda aniqlanishicha, anor tarkibida ellagotaninlar saqlanadi. Bu modda anorda juda ko'pligi bois, u jigar, buyrak, ko'krak bezi kasalligi va saratonning oldini oladi [6].

Kimyo fanlari doktori, Professor I.R.Asqarov «tabobat qomusi» asarida anorni doimiy ravishda iste'mol qilishning ko'plab sabablari aytilgan. Agar inson o'zida bosh aylanishi va lohaslikni sezsa, bu gemoglobin miqdori kamayib ketganidan darak berishi, bu holatda kuniga bitta anorni siqib, suvini ichib yurush, quritilgan anor po'chog'ini ko'k choy bilan birga choynakka solib, qaynoq suv bilan damlab istemol qilish. Bu choyni kechasi uxlashdan oldin ichganda, tiniqib uxlash, anor po'chog'i qaynatilgan suv bilan og'iz chayqaganda, tish og'rig'i, milk yallig'lanishi va shamollashidan xalos etishi, anor po'sti yuz terisiga ham foydali bo'lishi xaqida ko'plab misollar bilan keltirib o'tgan. Anor kam kaloriyali mahsulot, shuning uchun u parhezga amal qiluvchi va tanasining holatiga e'tibor beruvchilar uchun ideal darajada mos keladi. Quvvat darajasi kamligiga qaramay (100 gramm mahsulotda bor-yo'g'i 55 kkal), meva vitaminlarga boy va inson salomatligi uchun katta foydaga ega.



Anor yoshlik mevasi deb xam atalib, bu uning tarkibidagi antioksidantlar miqdorining ko'pligi bilan bog'liq. Ushbu moddalar organizmdagi oksidlanish jarayonlarini sekinlashtiradi, boshqacha qilib aytganda, qarish jarayonini tormozlaydi. Anor mevalaridan odamni tinchlantirib, asabiy zo'riqishning oladigan choyni tayyorlash mumkin. Buning uchun pishgan mevaning po'stlog'i va pardevorlarini quritish lozim. Undan keyin esa choy yoki boshqa ichimlikka maydalangan quruq anordan biroz qo'shish mumkin [8].

Anor sharbati jigar, buyrak kamqonlikdan, aterosklerozdan, nafas olish yo'llari infeksiyalaridan, bronxial astmadan, anginadan, radioaktiv nurlanishdan hastalangan insonlarga ichish tavsiya etiladi. Anorning eng mashhur xususiyati bu – uning anemiyaga qarshi kuchli davolovchi ekanligidir. Gipertoniklar uchun anor eng yaxshi meva hisoblanadi. Gormonlar (ichki sekresiya bezlar) faolligini oshiradi. Anor danaklarida organizmdagi gormon muvozanatini tiklaydigan yog'lar mavjud. Shuning uchun anor yeganingizda danaklarni tuflab yubormaslik lozim. Og'iz va tomog'ni zararli mikroblardan tozalaydi. Anor pustlog'ining kaynatmasini yoki sharbatini tomog'ni (angina va faringitda) va og'iz bo'shlig'ini chaykash uchun ishlatadilar. Insulin o'rnini bosadi. Anor shirin bo'lishiga qaramay, uni xattoki diabet kasalligi bor bemorlar ham iste'mol qilish mumkun.

Ilmiy izlanishlarga ko'ra, anor mevasi flavonoidlar manbai ekanligi aniqlandi. Flavonoidlar yallig'lanishni kamaytiridi va saraton hujayralari bilan kurashishda, jigar serrozikasalligida yordam beradi. Bir sutkalik flavonoidlar miqdorining 70% 100 gramm anor mevasida jamlangan. Taxminan 150 gramm anordan bir sutkalik foydali flavonoidlar moddasini qabul qilish mumkun.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizova S.S. "Farmakologiya". T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006-yil.
2. M.N. Maxsumov, M.M. Malikov Farmakologiya. T. Ibn Sino nash. 2006 y.[230,256,366,367]
3. Ataboyeva X.N., Xudayqulov J.B., O'simlikshunoslik.Toshkent 2018.



4. Asqarov I.R..Tabobat qomusi. Toshkent. “ MUMTOZ SO’Z”.2019. 1042.
5. Asqarov.I.R. SIRLI TABOBAT. Toshkent – “Fan va texnologiyalar nashriyot – uyi” – 2021. 283 b.
6. Azizova S.S. “Farmakologiya”. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006-yil.
7. Asqarov I.R., Sh.M. Qirg`izov “Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash” fanidan ma`ruzalar matni. Andijon ADU, 2017-yil..
8. Эшпулатов Ш.Я., Тешабоев Н.И., Мамадалиев М.З.У. Евразийский Союз Ученых, 2021 Интродукция, свойства и выращивание лекарственного растение стевия в условиях ферганского долины
9. Saminov A.A.O`g`li, Nasriddinova D.K.Qizi., Zanjabil o`simligini ochiq maydonlarda yetishtirish texnologiyasi //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – C. 26-30.
10. Saminov A.A. O`g`li, Abdug`aniyeva D.O`. Qizi., Nazirova B.H.Qizi. Dollar daraxtining yetishtirish texnologiyasi //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – C. 297-300.
11. Anvarjonovich D.Q., Saminov A.A., Xusanboyev G`.A., The importance of fungicides and stimulants in preparing seed grains First page : ( 415) Last page : (419) Article DOI : 10.5958/2278-4853.2021.00272.X